

# XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARINING MAMLAKATIMIZ IJTIMOIY VA IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403855>

**O‘ktamova Nargiza Narzulla qizi**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

***Anotatsiya.** Mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar keng turdagi tarmoqlarni qamrab olayotgan bo‘lsada, ularning qariyb yarmi davlat boshqaruvi, irrigatsiya va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilmoqda.*

***Tayanch so‘zlar:** Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, investitsiya, dastur, infratuzilma*

Mamlakatimiz Prezidentining 2022-yil 29-yanvarda PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi farmonida berilgan maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, xususan xalqaro moliya institutlari bilan keng ko‘lamda hamkorlik aloqalari jadallashgani, istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish sezilarli darajada o‘zmoqda.


“O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakatning intilishlarini, jumladan aholining kambag‘allik darajasini ikki baravar (7 foizgacha) kamaytirish, barqaror iqtisodiy o‘rinish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, xalqaro standartlarga javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish hamda ekologik muhitni yaxshilash rejalarini aks ettiradi.

Jahon bankining Uglerod aktivlarini konvertatsiya qilish jamg‘armasi (TCAF) tomonidan XTAning moliyaviy operatsiyalari doirasida 46,25 million dollarlik grant mablag‘lari ham taqdim etildi. Ushbu mablag‘lar Jahon banki tomonidan energetika sohasida emissiyalarni kamaytirish bo‘yicha hukumat siyosatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida moliyalashtiriladigan dunyodagi birinchi –“O‘zbekiston energetika sektorini transformatsiya qilish uchun Innovatsion uglerodli moliyalashtirish” loyihasini amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Jahon banki guruhining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi uchinchi yirik mijozi va ushbu mintaqada XTA tomonidan eng

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // manba: <https://lex.uz/docs/-5841063#-5843873>

ko‘p moliyalashtiriladigan mamlakat hisoblanadi. Loyihalar muhim makroiqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishni, suv resurslarini boshqarish, suv ta‘minoti, irrigatsiya, energetika, transport, sog‘liqni saqlash va boshqa faoliyatlarini takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi.



**2-rasm. 2016-2021- moliya yilida jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar viloyatlar kesimida ko‘rinishi<sup>2</sup>**

Jahon banki bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadbirlar, kambag‘allikni qisqartirish va umumiy farovonlikka hissa qo‘shmoqda.

Farg‘ona vodiysi va Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasi to‘qqizta sektordagi investitsiya operatsiyalari orqali Jahon bankining 1 milliard AQSH dollaridan ortiq investitsiyasini oldi. 2019-yilgi uy xo‘jaliklari byudjetini o‘rganish bo‘yicha aholi jon boshiga eng past daromad Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasiga, Namangan va Farg‘ona viloyatlari – 3,3 million so‘m (333 AQSh dollari), 3,4 million so‘m (343 AQSh dollari) va 3,7 million so‘m (373 AQSh dollari) bo‘lgan.

**2-jadval**

<sup>2</sup> O‘zbekistonda 2016-2021-moliyaviy davrida moliyalashtirilgan Jahon banki loyihalari; manba: Fy2022–Fy2026 Country Partnership Framework For The Republic Of Uzbekistan


## Jahon banki guruhi tomonidan 2022-2026- yillar uchun moliyalashtirilgan va rejalashtirilgan dastur va loyihalar<sup>3</sup>

FY	PROJECT	IDA (US\$, millions)	IBRD (US\$, millions)
FY2022	<i>Strengthening the Statistical System of Uzbekistan</i>	50	
	<i>Second Rural Enterprise Development Project</i>	180	20
	<i>Uzbekistan Financial Sector Reform Project</i>	15	
	<i>Accelerating Uzbekistan Transition DPO 4 (DPO)</i>	250	150
	<i>Resilient Landscapes Restoration Project (Regional)</i>	142	
	<i>Clean Energy for Buildings in Uzbekistan</i>	143	
	<b>Subtotal FY2022</b>	<b>780</b>	<b>170</b>
FY2023	<i>Second Livestock Sector Development Project</i>	150	150
	<i>Uzbekistan Scaling Solar 2 Independent Power Producer (Guarantee)</i>		50
	<i>Uzbekistan Youth Activation and Employment</i>	50	
	<i>Transforming Public Education for Economic Growth</i>	50	
	<i>Land Management and Infrastructures for Cadastre and Registration</i>	30	
	<i>Accelerating Uzbekistan Transition DPO 5 (DPO)</i>	250	250
	<b>Subtotal FY2023</b>	<b>530</b>	<b>450</b>
FY2024	<i>National Irrigation and Energy Efficiency Improvement</i>	200	
	<i>Accelerating Uzbekistan Transition DPO 5 (DPO)</i>	150	150
	<i>Scaling Solar 3 (Guarantee)</i>		50
	<i>Implementation of Health 2030 Strategy</i>		
	<i>Firms Capacity Support Project</i>		
	<b>Subtotal FY2024</b>	<b>530</b>	<b>200</b>
FY2025	<i>Rural Infrastructure Development Project-2</i>		
	<i>DPO Program with Climate/Green Growth PAs (DPO)</i>		
	<i>Trade Regional MPA M-41 Regional Corridor in Uzbekistan</i>		
	<i>Regional Airports Modernization and Air Connectivity</i>		
	<b>Subtotal FY2025</b>	<b>530</b>	<b>200-300</b>
FY2026	<i>Improve operational, financial and managerial efficiency of the water supply and sewerage service and scale up metering</i>		
	<i>Railway Reform and Logistics Improvement</i>		
	<i>Green financing</i>		
	<i>Power Distribution Grid Improvement</i>		
	<b>Subtotal FY2026</b>	<b>TBD IDA 21</b>	<b>200-300</b>

*In bold Italics projects already approved*

Shuningdek Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida 2022-yil 2-fevralda 51-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Osiyo taraqqiyot banki mablag‘larini jalb qilish orqali “zamonaviy iqtisodiyot uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish”<sup>4</sup> loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi.

### Projects and Technical Assistance



## 4-rasm. 2023-yil aprel oyigacha OTBning O‘zbekistonda amalga oshirgan umumiy loyihalari va ularning hajmi<sup>5</sup>

<sup>3</sup> Fy2022–Fy2026 Country Partnership Framework For The Republic Of Uzbekistan

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevralda 51-son qarori // manba: <https://lex.uz/docs/-5846087>

<sup>5</sup> ADB's Work in Uzbekistan // <https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan/overview>

2023-yil aprel oyilarigacha OTB O‘zbekistonga umumiy qiymati 12,05 milliard dollarlik 268 ta davlat sektoriga kreditlar, grantlar va texnik yordam ajratgan. Ular muntazam va imtiyozli oddiy kapital resurslari va boshqa maxsus fondlar hisobidan moliyalashtirildi.

Xulosa qilib, respublikamiz bilan xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish mamlakatimizning kelajakda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga hamda jahon iqtisodiy tizimi integrasiyasidagi o'rnining yanada oshishiga asos bo'ladi. XMTning grant va investitsiya dasturlari mamlakatimizga yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga va ularni joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

#### **Foydalanilgan saytlar ro'yhati**

1. [www.president.uz](http://www.president.uz) (O‘zbekiston Respub.[President.uz](http://President.uz) (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti).
2. [worldbank.org](http://worldbank.org) – (Jahon banki guruhi rasmiy veb sayti).
3. [www.adb.org](http://www.adb.org) – (Osiyo taraqqiyot bankining rasmiy veb sayti)
4. Jumaniyazov I. T. The significance of Uzbekistan reconstruction and development fund’s financial capital on economic growth of Uzbekistan //International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN. – T. 2348. – C. 0386.
5. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023.